

**QO‘QON ADABIY MUHITINI O‘RGANISHDA “TAZKIRAYI
QAYUMMIY”NING TUTGAN O‘RNI**

Temirova Orasta Tulkin qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti 2-kurs magistranti
@orastatemirova56@gmail.com*

Annotatsiya: Maqlolada XVIII-XIX asrlar oralig‘ida Qo‘qon adabiy muhitini o‘rganishda “Tazkirai Qayyumi” asarining o‘rni, tazkirada keltirilgan shoirlarning yutuqlari, ularning istiqomat qilgan ijtimoiy muhiti va ijodiga bo‘lgan xalqning bahosi haqida fikrlar keltirilgan. Asar bilan tanishish jarayonida shuni guvohi bo‘ldikki, XVIII-XIX asrlarda garchand Ho‘qandlik bo‘lmasa-da, shu yerda yashab ijod qilgan ijodkorlarni izsiz ketmasligi uchun ularni ham Qayyumi tazkirasiga kirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit,”Tazkirai Qayyumi”, shoir, Qo‘qon, tarix, Yassaviy, XVIII- XIX asr, ijtimoiy.

Abstract: The article discusses the role of “Tazkirai Qayyumi” in the study of the literary environment of Kokand between the 18th and 19th centuries, the achievements of the poets mentioned in the Tazkira, the social environment in which they lived, and the people's appreciation of their work. In the process of getting acquainted with the work, we witnessed that in the 18th-19th centuries, even though they were not from Khoqand, they were also included in the Qayyumi Tazkiras in order not to leave a trace of the artists who lived and created there.

Key words: literary environment, “Tazkirai Qayyumi”, poet, Kokan, history, Yassavi, 18th-19th century, social.

Muqaddas vatanimiz azaldan qomusiy olim, mutaffakir va shoirlar yetishib chiqqanligi va bunday ulug‘ zotlarni tarbiya qilib bergenligi bilan ham ahamiyatlidir. Ana shu tarix va xotiralarni o‘zida jamuljam etgan, ma’rifat va ma’naviyat maskanidir. Ushbu maskanda bir qancha mutafakkirlar yetishib chiqqan ular o‘zining asarlari bilan bugungi kun shoir va yozuvchilariga ham ma’naviy ustoz bo‘lib kelmoqdalar. An’anaviylik badiiy adabiyotning muhim belgilaridan biri bo‘lib xizmat qiladi, har qanday shoir borki, o‘zidan oldingi qaysidir bir shoirdan ilhomlanib ijod qiladi. Shunday ekan o‘tmish va bugungi kun adabiyotining o‘zaro mutanosib nuqtalari ham an’anaviylikni targ‘ib etmoqlikdir. Buni bir qancha an’anaviy janrlar va shakllarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Garchi muqaddas diyorimizni bosqinchilar egallagan bo‘lsa ham yagona vatan parchalanib xonliklar va amirliklar qo‘liga o‘tgan bo‘lsa-da, xalqning talantli va qobiliyatli farzandlari yo‘q bo‘lib ketmadi va ular o‘ziga xos adabiy muhitlarni

yaratdilar. Shunday zalvorli adabiy muhitlardan biri bu Qo‘qon adabiy muhitidir. XVIII-XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti eng katta va jo‘shqin adabiy jarayon sifatida shakllandi hamda faoliyat ko‘rsatdi. Bugun bizga Qo‘qon adabiy muhiti haqida eng qimmatli va ishonchli manba bo‘lib **Po‘latjon Qayyumovning “Tazkirai Qayyumi”** asari xizmat qiladi. Ushbu tazkirani yozishga Sadriddin Ayniyning **“Na’munayi adabiyoti tojik”** asaridan ibrat olganligini Ayniyning asari bilan tanishgani Qayyumi “Na’munayi adabiyoti o‘zbek”ni yaratishni orzu qilgani. Ayni shu orzuni ijrosi sifatida mazkur tazkira yuzaga kelgan Qayumi asarni tazkira tarzida tuzganligidan, unda boshqa tazkiradagi manbalardan istefoda etilganida va u butun o‘zbek adabiyotini qamrab olganlik da’vosi bo‘lmasin deb uni kamtarona “Tazkirai Qayumi” deb nomlaganligini muallifning o‘g‘li Aziz Qayumov e’tirof etadi.[1,85] “Tazkirayi Qayumi” asarida 342 nafar shoir haqida ma’lumotlar keltirilgan mazkur tazkirani o‘qishda kitobxon zerikib qolmasligi uchun muallif shoirlar haqida xalq orasida yurgan qiziqarli latifalarni ham keltirib o‘tgan[1,685]. Bunga misol Qo‘qonlik Berdiyor shoir haqida tazkirada shunday deydi Ahmad Yassaviy uslubicha “Hikmatga” tezkari mazharomuz she’rlar so‘zlar emish. Shuning uchun xalq uni “Shum” deb atab Berdiyor shum deb tasmiya etibdurlar [1,512]

*Panjshanba kuni bozor borib savdo qildim
Kimni ko‘rsam pulim bor deb da’vo qildim
Shalg‘am olib uyga borib sho‘rvo qildim
Sho‘rvo qilib terlab pishib o‘ldim mano.*

Yuqoridagi hikmatdan ham anglashiladi Berdiyor shum Ahmad Yassaviyning uslubicha “Hikmat”ga tezkari she’rlar so‘zlar emish. Yana bir ijodkor Kotib II taxallusida ijod qilgan qo‘qonlik shoir haqida shunday deydi: **“Ta’bi mazax va kulguga moyil bo‘lib “Ko‘rmasdan xotin olganligini” o‘z og‘zidan eshitganmiz”** [1,579]. Tazkiraning asosiy qismini Qo‘qon adabiy muhiti bilan bog‘liq materiallar tashkil etadi. Qo‘qon tarixiga bag‘ishlangan yana boshqa bir asari ham mavjud bo‘lib bu asri “Qo‘qon tarixi va adabiyoti” deb nomlangan bu asar uch daftardan iborat. [1,648] Bu adabiy muhit bilan bog‘liq adabiy manbalar Po‘latjon Qayumiya qadar ham mavjud edi. Ularning eng mashhuri va kattasi **“Majmuai Shoironi Umarxoniy”** asaridir. Biroq shuni alohida tahkidlash lozimki, Qo‘qon adabiy muhit haqidagi yaxlit ilmiy farazlar, analitik kuzatishlar, shoirlar va ularning asarlari borasida analogik xarakterdagi materiallar bir yerda jamuljam bo‘lgan birinchi asarni aynan Po‘latjon domla yaratdi. Bu asar ushbu **“Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”** hamda u asosida yaratilgan **“Tazkirai Qayumi”**dir. Muallif muhitning eng qorong‘u nuqtalarini yoritishga, so‘roq ostida qolgan masalalarga oydinlik kiritashga, ilmiy aniqlik va yangi mulohazalarni o‘rtaga tashlashga harakat qiladi. Ko‘p jihatdan bunday mas’uliyatlari va

murakkab vazifaning uddasidan chiqadi. Po‘latjon domlaning adabiyot tarixi bilimdonligi, badiiyat ilmlarini puxta o‘zlashtirganligi, manbalarni yaxshi bilishi va matnshunoslik malakasi ham yetarli edi. “**Shajarai turk**”, “**Muntaxab-ut-tavorix**”, “**Ansob-us-salotin va tavorix-ul-xavoqin**”, “**Tarixi Shohruhiy**”, “**Majmuat-ush-shuaro**”, “**Tuhfat-ul ahbob fi tazkirat-ul-ashob**”, “**Tuhfat-ul-ashob**”, “**Tazkirai Sultoniy**” “**O‘zbekiston tarixi**”, “**Adabiyot xrestomatiyasi**” kabi tarixiy va adabiy manbalar hamda yana bizga noma’lum ko‘plab qo‘lyozmalardan unumli foydalangan. Albattaki, yanga va eski davrni mukammal bilgan Qayyumiyning hayotiy tajribasi adabiy muhit haqida real va muhtasham bir tazkira yaratishiga unga juda ham qo‘l kelgan, deyish mumkin. Bu o‘rinda asarning yantuqli jihatlari bir munchadir. Misol uchun, muallif Qo‘qon adabiy muhitidagi she’riyat, umuman adabiyotni, tasniflar ekan u mazkur muhitda irfon she’riyati mavjud bo‘lganligini alohida ta’kidlaydi. Shu maqsadda uchinchi daftarini to‘laligicha irfoniy asarlar sohibi bo‘lgan qalam ahlining zikriga bag‘ishlagan. Bu esa Po‘latjon domlaning davr adabiyotiga baho berishda ancha xolis va to‘g‘ri yondasha olganidan darak beradi. Yoki, ba’zi adabiy figuralar haqida ma’lumot berar ekan, ular borasidagi nafaqat faktlari balki she’rlari boshqa manbalarda uchramasligi bilan ajralib turadi. Masalan, ikkinchi daftarda xon haqida ma’lumot berilar ekan, uning she’rlaridan namunalar berilgan. Shular orasida “Ey subh, bu dam bo‘l meni holimga guvohim” deya boshlanuvchi musaddas matni ham mavjud. Garchand bu she’r matni to‘liq bo‘lmasada xonning bu asari faqat shu o‘rindagina uchrashi ahamiyatlidir. Chunki, xon asarlarining manbalari u qadar ko‘p emas “Tazkirayi Qayyumiylar” o‘zining o‘z davrida mashhur bo‘lmasa-da o‘sha muhitda ijod qilgan shoirlarni ham qamrab olganligi, masalan Layli asli Ashhabod shahridan bo‘lsa ham vaqtincha Qo‘qon shahrida nashib-u namo etmishdir Layli xonim 19 baytdan iborat “Tabriknomalar” nomli she’r bitganligi va garchand tojik tilida bitgan bo‘lasi ham Qo‘qon shahrida ijodi ekan quyida she’rdan bayt keltirdik:[1, 61]

Hazoron shukr bar dargohi hayyi qodiri subhon

Ki az ashroq nuri ma’rifat ofsq shud rahshon [1, 61]

Ushbu ijodkorni tazkiraga faqatgina “**Tabriknomalar**” si kiritilgan. Asarning o‘ziga xosligi ham shu turdagи asarlardan xolisligi va ishonchli manbalar bilan dalil keltiganligi bilan ham bugungi kunda tazkira qamrab olgan davrni o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib hizmat qilmoqda. So‘zimizni isboti sifatida o‘z davrida o‘zini qaysidir iste’dodli shoir yozuvchilarning shogirdi deb ataganlarni ham asarlari va ijodi bo‘yicha tahlil qilgan va o‘z fikrlarini bildirgan. Shulardan biri G‘aribiy Ho‘qand sharidagi Ho‘jand mahallasida tugilgan va nihoyatda faqir inson va umrini qolgan qismini Muqumiylar xizmat qilib o‘tkazgan. O‘zini Muqumiylar shogirdi deb atasada, yozgan asarlarida adabiy borada Muqumiylar bahrlanganligi ko‘ribmaydi. Yozgan she’rlari so‘z yig‘indilaridan iboratdi. [1, 626-627]. Yana bir shoir haqida bunday demishlar: “**XIX asrda Qo‘qonda yashagan Bobo Rojiv taxallusida ijod qilgan va**

“Tazkira un anom” nomli bir kitob yozmish ekan kitob axloqqa doir bo‘lib nazm bilan bayon etilgan quruq so‘zlardan iboratdur”[1, 603]

Fikrimizning xulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o‘tmish haqida ishonchli va xolis manba bu eng qimmatli manba bo‘la oladi. “Tazkirai Qayyumiyl” xuddi shunday manba desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki asarda nafaqat shoirlarning yutuqlari ularning istiqomat qilgan ijtimoiy muhiti va ijodiga bo‘lgan xalqning ham bahosini aytib o‘tgan. Asar bilan tanishish jarayonida shuni guvohi bo‘ldikki, XVIII-XIX asrlarda garchand Ho‘qandlik bo‘lmasa-da, shu yerda yashab ijod qilgan ijodkorlarni izsiz ketmasligi uchun ularni ham kiritganligini muallif aytib o‘tgan. Marifatparvar muallim, tarixchi, adabiyotshunos olim o‘zidan juda katta ma’naviy meros qoldirgan, bu merosini tashkil etuvchi asarlar xalqimiz va adabiyotimiz tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qayyumov P. Tazkirayi Qayyumiyl 1-jild -Toshkent, 1997, B-244
2. Qayyumov P. Tazkirayi Qayyumiyl 2-jild -Toshkent, 199, B-225
3. Qayyumov P. Tazkirayi Qayyumiyl 3-jild -Toshkent, 1997, B-246